

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 10 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Фарманова Гулнара Комилевна*  
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО  
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18
- Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ  
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР  
БОШИ) ..... 19-26
- Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*  
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ  
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34
- Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*  
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39
- Янгибоева Дилноза Ўктамовна*  
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ  
ФАОЛИЯТИ ..... 40-48
- Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА  
УЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53
- Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*  
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58
- Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*  
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA  
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSIOLOGIK TAHLIL) ..... 59-65
- Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*  
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74
- Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*  
XORIJIIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA  
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80
- Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*  
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ  
ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Boltayev Nurali Shiramatovich*  
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>То'хтайев Хаким Примович</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИЩДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-165
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	166-171
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	172-179
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	180-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	187-194
<i>Umarova Xurshida Zikiryoixonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI .....	195-203
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN .....	204-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI .....	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	218-224
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI .....	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР .....	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР .....	247-253
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI .....	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328



08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

**Boltayev Nurali Shiramatovich**

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [nurali.boltayev1991@gmail.com](mailto:nurali.boltayev1991@gmail.com)

**AGRAR OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

**Аннотация.** Аграр олий таълим муассасаларида кадрлар тайёрлашнинг бошқарув самарадорлигини ошириш юзасидан амалга оширилаётган ишлар таҳлил қилинган. Хорижий тажрибалардан келиб чиқиб, ўқув-услубий ҳужжатларни такомиллаштириш, олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини ташкил этиш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** олий таълим, ривожлантириш, бошқариш, кадрлар тайёрлаш, таълим тизими, рақамлаштириш, илм-фан.

**Boltaev Nurali Shiramatovich**

Base doctoral student of Tashkent State Agrarian University

**WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF THE MANAGEMENT OF TRAINING QUALIFIED  
PERSONNEL IN AGRICULTURAL UNIVERSITIES**

**Abstract.** The ongoing work to improve the efficiency of personnel training management in agricultural universities is analyzed. Based on foreign experience, proposals and recommendations for improving educational and methodological documentation and organizing the educational process in higher educational institutions have been developed.

**Key words:** higher education, development, management, personnel training, education system, digitalization, science.

**Болтаев Нурали Шираматович**

Базовый докторант Ташкентского  
государственного аграрного университета

**ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКИ  
КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ КАДРОВ В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ВУЗАХ**

**Аннотация.** Проанализирована проводимая работа по повышению эффективности управления подготовки кадров в сельскохозяйственных вузах. На основе зарубежного опыта разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию учебно-методической документации, организации учебного процесса в высших учебных заведениях.

**Ключевые слова:** высшее образование, развитие, менеджмент, подготовка кадров, система образования, цифровизация, наука.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N12>

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim tizimi bo'yicha innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi hamda kadrlar salohiyatiga alohida e'tibor qaratilishi sohalar bo'yicha malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirishda ta'lim integratsiyasi, innovatsiyasi hamda amaliyotlarni ishlab chiqarish bilan bog'lash keng yo'lga qo'yilgan. Ta'lim darajasi bo'yicha dunyo reytingida Avstraliya-0,939, Daniya-0,923, Yangi Zelandiya-0,917, Norvegiya-0,916, Germaniya-0,914, Irlandiya-0,910, Islandiya-0,906, AQSh-0,900, Niderlandiya-0,897, Buyuk Britaniya — 0,896 indeks bilan yuqori o'rinni egallab kelmoqda. Ammo, turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida, global Covid-19 pandemiyasining dunyo bo'yicha keng tarqalishi ta'lim tizimida bir qator bahsli vaziyatlarni ya'ni oliy va o'rta maxsus ta'lim, maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishdagi muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Shu bois, zamonaviy ta'lim tizimiga ega rivojlangan mamlakatlarda differensiyalashgan ta'lim tizimining joriy etilishi soha mutaxassisleri tayyorlashda bu usuldan foydalanish, tizimni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mavjud muammolarni bartaraf etish, zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etishga keng e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga bir qator imtiyozlar berilib, globallashuv sharoitida davlatimizning kelajagini tashabbuskor, strategik va kreativ fikr yuritadigan, bilimli va yuqori malakali yangi avlod kadrlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Xalqimizda "ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi", degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotiga yetaklaydi. Shu sababli, mamlakatimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslangan, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratishga harakat qilinayotgani bejiz emas. Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart[1]. Shundan kelib chiqib, inson kapitalini rivojlantirish va oliy ta'lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashga alohida ahamiyat berish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz bo'yicha 2023 yilda oliy ta'lim muassasalarida jami 1 mln.dan ortiq talabalar tahsil olayotgan bo'lsa, shundan, agrar soha uchun kadrlar tayyorlayotgan 5 ta oliy ta'lim muassasalarida 37 mingdan ortiq mutaxassislar tayyorlanmoqda. Shuningdek, agrar ta'lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sohaga zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, kadrlar salohiyatini yuksaltirish, mehnat bozorini raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlash darajasini, ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish, agrar sohadagi faoliyat olib borayotgan oliy va professional ta'lim muassasalarida davlat ma'muriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda shu orqali o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning

samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish bo'yicha alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va uning salohiyatidan samarali foydalanish, ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish, hududlarni rivojlantirish istiqbollari hisobga olgan holda ilg'or xorijiy tajriba va agrotexnologiyalar bo'yicha yetarli bilim va malakalarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlash hamda kafolatli mehnat bozorini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2023-yilning 7-iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-sonli qarori qabul qilindi[2]. Mazkur hujjat bilan Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash hamda uning samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ham tasdiqlandi.

Agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari oldiga quyidagi aniq vazifalar belgilangan bo'lib, bular:

oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari va nizomlarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash;

oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

oliy ta'lim muassasalarining laboratoriya bazasi va o'quv auditoriya fondlarini oshirish;

oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun haq to'lanadigan xorijiy stajirovkalarni tashkil qilish;

ilmiy va ilmiy pedagog xodimlarni qo'llab-quvvatlash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma dasturlarni hamda akademik almashinuv salmog'ini ko'paytirish;

oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining rahbar, professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlarining ish samaradorligini oshirish bo'yicha KPI tizimini joriy etish;

talabalarining mustaqil ta'lim olishlari uchun yetarli sharoit yaratish;

oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy-innovatsion faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish;

oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini maqbullashtirish, talabalar qabulini tashkil etish hamda professor-o'qituvchilari va iqtidorli talabalarini akademik mobilligini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va iqtidorli talabalarini xorijiy davlatlarning hamkor universitet va ilmiy tadqiqot muassasalarida tajriba almashuv va o'qib kelishlari uchun hamkor oliy ta'lim muassasalari va Yevropa Ittifoqining Erasmus+ mobillik loyihalarida ishtirok etish;

talabalarining bo'sh vaqtlarida o'z ta'lim yo'nalishlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarini egallashlari uchun zaruriy shart-sharoitlarini yaratish. Qishloq xo'jaligi korxonalarini, dehqon xo'jaliklari va aholi shaxsiy tomorqalarida agromaslahatlar va xizmatlarga bo'lgan talablarni qondirishda talaba yoshlar, magistrlar va doktorantlar imkoniyatlaridan foydalanish hamda ularning kasbiy malaka va moddiy manfaatdorligini oshirish maqsadida "Servis guruh"larini tashkil qilish;

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasi uchun magistratura mutaxassisliklarida o'qish muddatini 1 yil, ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchi talabalar uchun o'qish muddatini 2 yil etib belgilash.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, agrar oliy ta'lim muassasalariga mehnat bozori talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash vazifasini qo'yadi. Agrar sohani taraqqiy etishi, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini bilan ta'minlash, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, sifat va samaradorlikni oshirish, fermer xo'jaliklari, tomorqa yer egalari, klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirishda oliy va o'rta ma'lumotli kadrlarning o'rni alohida ekanligini ko'rsatib beradi. Shu bois, agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalari oldiga bir qator aniq strategik maqsadlarni belgilab olgan holda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun xalqaro tajribalarni o'rganish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish, raqamlashtirish jarayonini yanada jadallashtirish, moddiy-texnika ta'minotini zamonaviylashtirish, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish muhim hisoblanib, agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlayotgan ta'lim muassasalari oldiga "Universitet 3.0" va "Universitet 4.0" modeli asosida faoliyat ko'rsatishini taqozo etadi. Bu modellar asosiy maqsadi:


- ilm-fan-ta'lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish;
- tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish;
- ishbilarmon doiralar vakillari bilan samarali muloqot o'rnatish;
- oliy ta'lim muassasasida texnologik startaplar yaratish;
- raqamlashtirish va biznes jarayonlari avtomatlashtirish;
- yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirish;
- ommaviy ishlab chiqarishdan iste'molchilarning individual talablari asosida xizmatlar ko'rsatish orqali oliy ta'lim muassasalari mahalliy va xalqaro darajada nufuzini va ishonchini oshirishga e'tibor qaratish.

Rivojlangan davlatlardagi oliy ta'lim muassasalari tajribalaridan kelib chiqib, tarmoq, soha va hududlar iqtisodiyoti yaxshilashda oliy ta'lim tizimi bilan hamkorlik qilish orqali zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash mumkin bo'ladi.

Globalashuv jarayonida raqamlashtirish, yashil iqtisodiyotga o'tish, zamonaviy boshqaruv usullari yordamida oliy ta'lim muassasalarida xarajatlarni maksimal darajada kamaytirish va daromadlarni oshirish vazifasi dolzarb hisoblanadi. Buning uchun esa, o'quv rejalaridagi fanlar sonini optimallashtirish, amaliyotlarni samarali tashkil etish, o'qish davrida talabalarning ish beruvchi tashkilotlarda bandligini ta'minlash orqali kadrlar salohiyatini oshirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida yangicha boshqaruv tizimini joriy etish, mavjud bo'linmalarining faoliyatini optimallashtirish, xalqaro reytinglarda nufuzini oshirish, mehnat bozori talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, o'quv jarayoni va ta'lim sifati samaradorligini oshirish, boshqaruv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida qarorlarni qabul qilish bo'yicha boshqaruvni markazdan o'rta va quyi bo'g'inga tushirishga e'tibor berish va boshqa jihatlarga ahamiyat qaratish lozimdir.

Agrar sohada oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch hisoblangan Toshkent davlat agrar universitetida bir qator ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Jumladan, 2023-yil 1-

iyun kuni Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti – “Times Higher Education” agentligi tomonidan “THE Impact Rankings” reytingi e’lon qilindi. Ushbu reytingida O‘zbekiston Respublikasining 47 ta oliy ta’lim muassasalari ichida Toshkent davlat agrar universiteti 2-o‘rinni egallab, O‘zbekistonning 3 ta oliy ta’lim muassasasi kuchli 1000 likka kirdi. Mazkur ro‘yxatda Toshkent davlat agrar universiteti – 801-1000-o‘rinni egalladi. Bundan tashqari, universitet o‘tgan yilga nisbatan 200 pog‘onaga yuqoriladi.



Bu albatta, universitet oldiga kelgusida, zamonaviy kasblarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganish, ta’lim muassasasida o‘quv jarayonini tashkil etishda nazariya va amaliyotni bog‘lash, mehnat bozori talablarini o‘rganish, marketing siyosatini amalga oshirish asosida malakali kadrlar tayyorlash vazifasini qo‘yadi. Buning uchun, mehnat bozorida malakali kadrlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasida manfaatli hamkorlik ishlarini tashkil etish, ta’lim yo‘nalishlarining malaka talabi, o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-son buyrug‘ining ijrosi yuzasidan Toshkent davlat agrar universiteti huzurida Qishloq xo‘jaligi, O‘rmon xo‘jaligi, Baliq xo‘jaligi ta’lim sohalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi soha kengash tashkil etildi.

Malaka talablari va o‘quv rejalarini ishlab chiqishda 21 ta xorijiy oliy ta’lim muassasalarining agrar sohada kadrlar tayyorlash bo‘yicha ilg‘or ilm-fan, ta’lim texnologiyalari o‘rganildi. Xususan, Yevropa kredit-modul tizimi asosida fanlar krediti 4 va 6 etib belgilandi hamda tanlov fanlari mantiqiy ketma-ketlik asosida 25%dan oshmagan holda 2-kursdan boshlab olib borilishi belgilandi.

## Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari, o'quv reja va dasturlarini tayyorlashda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining tajribasi asosida tahlili

### 1-jadval

№	Bakalavriat ta'lim yo'nalishi nomi	Xorijiy davlat nomi	Xorijiy oliy ta'lim muassasasi nomi
1	Meva-sabzavotchilik va uzumchilik	Xitoy	China Agricultural University
		Braziliya	Universidade de São Paulo
		Niderlandiya	Wageningen University
2	Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish	AQSH	University of California, Davis, UC Davis
		Belgiya	Ghent University
3	Agrokimyo va agrotuproqshunoslik	Niderlandiya	Wageningen University
		Germaniya	Rheinische Friedrich Wilhelms Universitat
		Xitoy	China Agricultural University
4	Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)	AQSH	New Mexico State University
		Avstriya	University of Natural Resources and Life Sciences, Vienna
5	O'simliklar karantini va himoyasi	Niderlandiya	Wageningen University
		AQSH	University of California, Davis, UC Davis
		Belgiya	Ghent University
6	O'simliklarni himoya qilish (ekin turlari bo'yicha)	Turkiya	Ege University
		Indoneziya	Bogor Agricultural University
		Xitoy	Nanjing Agricultural University
		Pokiston	University of Agriculture
7	Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo'llash	AQSH	Iowa State University
		Turkiya	Istanbul Technical University
8	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (qishloq xo'jaligida)	AQSH	North Dakota State University
		Xitoy	Hunan University
9	Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha)	Avstraliya	RMIT University
		Angliya	The University of Manchester
		Ispaniya	Universitat Autònoma de Barcelona
10	Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi	AQSH	Cornell University
		Germaniya	University Hohenheim

Jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, jahonda yetakchi hisoblangan oliy ta'lim muassasalarida agrar soha uchun malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ularning ta'lim jarayonlarini tashkil etish, amaliyotlarini olib borilishi, kadrlar buyurtmachilarini takliflari asosida mutaxassislar tayyorlashning muhim jihatlari o'rganildi. Shu bois, agrar soha bo'yicha 43 ta ish beruvchi tashkilotlarning takliflari asosida 38 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda 58 ta magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari ishlab chiqildi hamda o'rnatilgan

tartibda tasdiqlandi. Albatta, ushbu amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijasi berib, kelgusida agrar sohani malakali kadrlar bilan ta'minlaydi.

**Xulosa o'rnida**, agrar sohani taraqqiy etishi, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, aholini ish bilan bandligini ta'minlash, kadrlar salohiyatini oshirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, o'zgaruvchan mehnat bozori talablaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash, sohaga investitsiyalarni jalb etish, ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlari mahoratini oshirish orqali talabalarda o'z yo'nalishlari bo'yicha kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Strategiyasi.// O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2021.: 224 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-216-sonli qarori (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.07.2023 y., 07/23/216/0457-son).
3. Boltaev N.Sh. Rivojlangan davlatlarda agrar ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha ilg'or tajribalar. // "Agroiqtisodiyot" ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnali. – T., 2022 yil, № 3-son. – 129-131 betlar. (08.00.00 №25).
4. Toshboev A.J., Siddikov Z.T., Boltaev N.Sh. Prospects for the training development of qualified personnel in the agricultural education system: a case study from Tashkent State Agrarian University, Uzbekistan. // E3S Web of Conferences Volume 389 (2023) Ural Environmental Science Forum "Sustainable Development of Industrial Region" (UESF-2023) Chelyabinsk, Russia, April 25-28, 2023.
5. Boltaev N.Sh. Trends in the development of personnel training in the agrarian education system. // ISSN: Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 6, June. (2022) Page 794-799.
6. <https://edu.uz/uz>.
7. <https://www.agro.uz/>.
8. <https://www.statista.com/markets/411/topic/962/educationscience/#statistic1>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 10 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).